

Farg'ona tajribasi: davlat xizmatchilari kutubxonada

Toshloq tumani Axborot-kutubxona markazida "Davlat xizmatchisi kutubxonada bir kun" loyihasi amalga oshirildi.

Tuman hokimligi, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi va tuman Axborot-kutubxona markazi hamkorlikda tashkil etilgan tadbirda mahalla "yettiligi", ijtimoiy soha tashkilotlarining rahbarlari hamda umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlari va maktabgacha ta'lim muassasalarining mudiralari ishtirok etdi.

Davlat fuqarolik xizmatchilari o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilishda Farg'ona tajribasi yo'lga qo'yilgan. Viloyat hokimining "Davlat xizmatchisi kutubxonada bir kun" loyihasini tashkil etish va o'tkazishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida yana bir tashabbusga qo'l urilib, mazkur loyihani tizimli ravishda amalga oshirib borish yo'lga qo'yildi.

2025-01-13 10:01:51